BADIIY ASARLARDA OBRAZLI TAHLIL QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Rahimova Oyshajon Inomjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi e-mail Oyshaxon2440@gmail.com +998937720321

Ilmiy rahbar: Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarda obrazli tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda obraz tushunchasining mohiyati, uning asar g'oyasini ochib berishdagi o'rni hamda qahramonlarning psixologik portretini tahlil qilish usullari ko'rib chiqilgan. Maqolada qahramonlarning xarakterini ochishda badiiy vositalarning ahamiyati, muallif pozitsiyasi va asarning ijtimoiy-estetik qiymati obrazli tahlil qilish asosida yoritiladi. Shuningdek, obrazli tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, "mind map", "role play", "debat" kabi metodlar o'quvchilarning badiiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Obrazli tahlil, badiiy asar, psixologik portret, estetik tafakkur, muallif pozitsiyasi, "mind map", "role play", "debat" metodlari, badiiy vositalar.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АНАЛИЗА ИЗОБРАЖЕНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ХУДОЖЕСТВЕННОГО

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты фигуративного анализа произведений искусства. Изучается сущность понятия образа, его роль в раскрытии идеи произведения, методы анализа психологического портрета персонажей. В статье подчеркивается важность художественных средств в раскрытии характера образов, позиции автора и социально-эстетической ценности произведения на основе фигуративного анализа. Также в фигуративном анализе современные педагогические технологии, такие как «составление ментальных карт»,

«ролевая игра», «дискуссия», служат развитию у студентов художественного мышления, самостоятельности и эстетического вкуса.

Ключевые слова: фигуративный анализ, произведение искусства, психологический портрет, эстетическое мышление, позиция автора, методы «составления ментальных карт», «ролевой игры», «дискуссии», художественные средства.

SPECIFIC ASPECTS OF IMAGE ANALYSIS IN ARTISTIC WORKS

Abstract. This article covers the theoretical and practical aspects of figurative analysis in works of art. It examines the essence of the concept of image, its role in revealing the idea of the work, and methods for analyzing the psychological portrait of the characters. The article highlights the importance of artistic means in revealing the character of the characters, the author's position, and the socio-aesthetic value of the work on the basis of figurative analysis. Also, modern pedagogical technologies in figurative analysis, such as "mind map", "role play", "debate", serve to develop students' artistic thinking, independent thinking, and aesthetic taste.

Keywords. Figurative analysis, work of art, psychological portrait, aesthetic thinking, author's position, "mind map", "role play", "debate" methods, artistic means.

Hozirgi davrga kelib, adabiyot darslarini kreativ tashkillash va uni yanada rivojlantirish borasida turli islohotlar o‘tkazilmoqda. Har bir badiiy adabiyotning o‘ziga xos obrazi, asar qahramoni yoki bosh qahramoni bo‘lishi mumkin. Badiiy asarning asosi hisoblangan obraz va obrazlilik terminlariga doir turli qarashlar quyidagicha tahlil qilinadi. “Obraz” atamasi (yunoncha eydos – ko‘rinish, manzara) bu tashqi ko‘rinish, predmet va narsaning qiyofasi ma’nosini anglatadi. Shu bilan birga, predmet va narsaning mohiyati, g’oyasi, ichki mazmuni tushunchalarini ham o‘zida tashiydi. Keyinchalik bu ikki mohiyat o‘zaro birlashib, aks ettirish ma’nosiga kelgan. Yunon olimi Platon uchun obraz real dunyoning adabiy aksi bo‘lsa, Aristotel uni «mimesis» nazariyasi, ya’ni taqlid orqali tushuntirgan. “Литературный энциклопедический словарь” da obraz mohiyatiga tarixiy nuqtai nazardan

yondashilib, u haqidagi qator qarashlar keltirilgan: I.Kant obrazni muvofiqlik va mos kelish, fikr va tuyg'uning uyg'unligi («сочетание и согласие», «чувственность и рассудок») sifatida e'tirof etgan. Shelling talqinida esa, obraz real va ideal, borliq va g'oya, tugallanganlik va hududsizlik tushunchalarini o'zida birlashtirgan Gegelning "Estetika" asarida bu termin ancha keng talqin qilingan bo'lib, "Biz poetik tafakkurni obrazli tasavvur qilamiz. Obrazli tahlil badiiy asardagi qahramonlar, timsollar, ramziy vositalar, xarakterlar va ular orqali ifodalangan g'oyalarni ilmiy asosda o'rganish jarayoni hisoblanadi. Mazkur tahlil usuli adabiyotshunoslikda keng qo'llanilib, asarning mazmuni bilan birga muallif mahoratini ham ochib beradi. Chunki yozuvchi voqelikni bevosita emas, balki obrazlar tizimi orqali tasvirlaydi. Obrazni o'rganish esa asarni chuqur tushunishga xizmat qiladi. Obrazni estetik reallik, badiiy me'yor, g'oya, umumiylik, originallik hamda, mazmun va shaklning dialektik birligi sifatida tushunamiz", - deb yozadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy obraz deyilganda, hayot hodisalarini konkret-individual shaklda qayta yaratish tushuniladi. Uning maqsadi va mohiyati borliqqa taqlid qilish emas, balki uni konkret shakllarda qayta ijodiy yaratishdan iboratdir. Adabiyotda obraz so'z vositasida reallashadi. Obrazga xos jihatlar predmetlilik, ma'no umumlashmasi va tarkibiylikdan iborat. "Ensiklopedik lug'at"da ko'rsatilishicha, obraz tarkibi o'zgaruvchandir. Badiiy vaqt va badiiy makon obrazning asosiy xususiyatlari sanalib, borliqni yaxlit qabul qilishni ta'minlaydi.

Badiiy asarlarda obrazli tahlil texnologiyalaridan foydalanish bugungi ta'lim jarayonining eng muhim masalaridan biriga aylandi. Bunga sabab esa, badiiy asarlarni obrazli tahlil qilish orqali o'quvchilarda keng mulohaza yuritish, ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish, syujetlarni tasavvurida gavdalantirish va hayotiy vaziyatlarga ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlarni o'zlarining kuchi, tafakkuri, bilimi va mehnati bilan o'zlashtirishini ta'minlash

maqsadida obrazli tahlil qilish usulidan foydalaniladi. Shuningdek, badiiy asarlarda obrazli tahlil masalasi adabiyotshunoslik va pedagogika yo‘nalishida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar obrazning badiiy tafakkurdagi o‘rni va uning o‘quv jarayonidagi ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi. Pedagog olima N. Azizxo’jayeva o‘zining pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan ishlarida ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini ta’kidlaydi. Bu esa obrazli tahlilni samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, obraz tushunchasi badiiy tafakkurning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida talqin etiladi. Badiiy adabiyotning asosiy tasvir vositasi obraz hisoblanadi. Chunki yozuvchi borliqni, inson hayotini, jamiyatdagi voqea-hodisalarni bevosita emas, balki badiiy qayta ishlangan shaklda, ya’ni obrazlar vositasida aks ettiradi. Obraz san’atkor tafakkuri mahsuli bo‘lib, unda hayotiy haqiqat bilan ijodiy tasavvur uyg‘unlashadi. Shu jihatdan obraz oddiy nusxa emas, balki voqelikning estetik talqinidir. Adabiyotshunoslkda obraz inson xarakteri, ruhiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqeini badiiy shaklda mujassamlashtiruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Har bir obraz muayyan davrning ma’naviy qiyofasini, ijtimoiy muammolarini va insoniy qadriyatlarini ifodalashi mumkin.

Obraz orqali muallif voqelikni qayta yaratadi va o‘z g‘oyasini ifodalaydi. Shu sababli obrazni tahlil qilish badiiy asarni anglashning asosiy yo‘llaridan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy tadqiqotlarda obrazli tahlilni muammoli ta’lim, interaktiv metodlar va tanqidiy fikrlash texnologiyalari bilan bog‘lash tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa mazkur metodning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Obrazli tafakkur manbaini yanada rivojlantirish borasida zamonaviy interaktiv metodlar “mind map”, “role play”, “debat” kabi usullar obrazli tahlil qilishni yanada qiziqarli

bo‘lishiga ko‘maklashadi. Obrazli tahlil orqali o‘quvchilar asardagi qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini va muallif g’oyasini yanada chuqurroq tushunadi. Bu bilan odatiy mazmuniy o‘qishdan farqli ravishda, asarni kengroq idrok etishga yordam beradi. O‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Savol-javob, munozara va fikr almashish orqali dars yanada qiziqarli tashkil qilinadi. Qahramonlar taqdiri va xatti-harakatlari tahlil qilish orqali o‘quvchilar hayotiy saboqlar oladi, ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni ajratishni o‘rganadi. Buning yana bir afzalligi shundan iboratki, u nafaqat badiiy asarni chuqur o‘rganishga xizmat qiladi, balki o‘quvchilarning intellektual, estetik va ijodiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko’rsatadi. Shu bois, ushbu metodni adabiy ta’lim jarayonida keng qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Obrazli tahlil orqali asardagi personajlar, ramziy detallar, tabiat manzaralari va boshqa badiiy unsurlar orqali muallif maqsadini ochib berish jarayonidir. Bunday tahlilda faqat syujet voqealari emas, balki obrazlarning ichki mohiyati, xarakter taraqqiyoti, o‘zaro munosabatlari va g‘oyaviy vazifasi o‘rganiladi.

Adabiy ta’lim jarayonida obrazli tahlil orqali yondashish o‘quv dasturlarida ham, o‘qituvchi bilimlarini bayon qilishda ham, o‘quvchilarning mustaqil ishi ham o‘z ifodasini topishi lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilarning har qanday masala ustida izlanishi obrazli tahlilga kiritmaslik kerakligini nazarda tutish kerak. San’at va adabiyotdagi obraz jonli harakati, jozibadorligi va yorqinligi bilan o‘zida hodisaning qonuniyatini asosli va chuqur mujassam qilgani bilan farq qiladi. Demak, adabiyotga hayotning hamma ko‘chma ma’no beruvchi so‘zlar, iboralar, leksik resurslar, ifoda vositalari kabi unsurlari kirar ekan, kirganda ham san’atkor ongi va qalbida jilolanib, boyib, kattalashib ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir. Mind map, role play, debat metodlarining o‘ziga xos afzalliklari ma’lumotni tez eslab qolish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini kengaytirish, nutq

madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hikoya, qissa, roman va badiiy asarlardagi personajlarni obrazli tahlil qilishda qo‘l keladi. Muhokama davomida interfaol va interaktiv metodlardan samarali tarzda foydalanish uchun o‘qituvchidan yetarli darajada yuqori bilim, uzoq yillik ko‘nikma va malaka bo‘lishi talab etiladi. Badiiy asarni tahlil qilish davomida obrazli tahlil qilish usulidan foydalanish darsni o‘zlashtirishni yanada mukammal tarzda samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Amaliy darslar davomida natijalar shuni ko‘rsatadiki, obrazli tahlil qilish usuli va metodlardan foydalanish dars samaradorligini 20-30% miqdorda yaxshilanganligi aniqlangan. O’quvchilarnig darsda faol ishtirok etishi va mavzuni yaxshi tushunganligidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, adabiyot darslarida badiiy asarlarni o‘qish jarayonida obrazli tahlil qilish usulidan foydalanish natijasida o‘quvchilarning obrazli tahlil qlish ko‘nikmalari va salohiyatlari rivojlanib boradi. Shuningdek, adabiy tahlil jarayonini yangicha uslubda, asar mazmunini, uning badiiy g‘oyasini o‘quvchiga yetkazib berish darajasi oshadi. Shu sababli obrazli metodlardan foydalanish asarlar bilan ishlashda doimiy ravishda qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda obrazli tahlil qilish adabiy matnni anglashning eng samarali ilmiy usullaridan biri sanaladi. U asardagi qahramonlar xarakteri, ichki hissiy olami, muallif g‘oyasi, tarixiy muhit va estetik idealni ochib beradi. Obrazli tahlil orqali badiiy asarning tashqi syujetidan ichki falsafiy qatlamigacha yetib boorish mumkin. Shu sababli mazkur metod nafaqat klassik adabiyot, balki zamonaviy matnlarni tadqiq etishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: Fan, 2007. - Б. 64.

2. Karimov H.U. Badiiy adabiyotda obraz va obrazlilik. T.: O’zbekiston, 1984. Adabiyot nazariyasi, 1-tom. T.: Fan, 1978.

3. Karimova, M. (2019). Verbalization Of The Concept “Love” By Phrase Logical Units And Bio-Technology, 11(10), 98-104

4.https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/adabiyot/obrazlilik-va-badiiy-obraz-badiiy-obrazning-o-ziga-xos-xususiyatlari

5.https://uz.wikipedia.org/wiki/Obraz

6.https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/download/1066/754/3506

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Adabiyot nazariyasi bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar. – Toshkent.